

## АУБИГА IQRORLIK TO'G'RISIDA KELISHUV INSTITUTI

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi  
2-o'quv kursi 207-guruh kursanti  
Abdug'afforov Asilbek Mirzohid o'g'li*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoritilgan institut Jinoyat-protsessul qonunchiliga kiritilgan oxirgi o'zgartirishlardan biri bo'lib, amalda jinoyat ishida gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxsga ma'lum ma'noda o'z aybiga iqror bo'lib, jinoyat ochilishiga faol yordam bergan holda o'ziga nisbatan tayinlanadigan jazo chorasini yengillashtirish uchun berilgan bir imkoniyat bo'lgan – aybiga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv instituti va uning bugungi kunda amaliyotda qo'llanilishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** jinoyat protsessi, surishtiruv, dastlabki tergov, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jazo chorasi, aybiga iqrorlik to'g'risida kelishuv

## INSTITUTE OF PLEA NEGOTIATION

**ABSTRACT:**

The institution described in this article is one of the last amendments made to the Criminal Procedure Law, and in practice, a person who is suspected or accused of a crime, in a certain sense, confesses his guilt and dies while actively helping to solve the crime. there was an opportunity to lighten the punishment imposed on him - the institution of the plea agreement and its use in practice today are discussed.

**Key words:** criminal process, inquiry, preliminary investigation, suspect, accused, punishment, plea agreement.

## ИНСТИТУТ ПЕРЕГОВОРОВ О СОБСТВЕННОСТИ

**Аннотация:** вины и его использование на практике сегодня. Описываемый в данной статье институт является одной из последних поправок, внесенных в Уголовно-процессуальный закон, и на практике лицо, подозреваемое или обвиняемое в совершении преступления, в определенном смысле признает свою вину и погибает, активно помогая раскрыть преступление, появилась возможность смягчить назначенное ему наказание - обсуждаются институт соглашения о признании

**Ключевые слова:** уголовный процесс, дознание, предварительное следствие, подозреваемый, обвиняемый, наказание, соглашение о признании вины.

Rivojlanayotgan davlatimizda sud-huquq tizimida, jumladan, jinoyat qonunchiligimizda yildan-yilga liberallashtirishga qaratilgan islohotlar qilinmoqda. Bu boradagi islohotlar avvalo “Inson qadri uchun” bosh tamoyili asosida amalga oshirilmoqda. Xususan, aybiga iqrorlik to’g’risidagi kelishuv bu - jinoyat ishini yuritishda o’ziga nisbatan qo’yilgan gumonga, ayblovga rozi bo’lgan, jinoyatning ochilishiga faol ko’maklashgan va keltirilgan zararni bartaraf etgan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan nazorat qiluvchi prokuror bilan ijtimoiy xavfi katta bo’lmagan, uncha og’ir bo’lmagan va og’ir jinoyatlar bo’yicha tuziladi.

Aybiga iqrorlik to’g’risida kelishuv instituti o’tmishiga nazar tashlaydigan bo’lsak, dastlab Fransiya tarixida uchratishimiz mumkin. Yuz yillik urush tarixidagi eng yirik qo’g’olonlardan biriga boshchilik qilgan Janna d’Ark<sup>1</sup> qo’lga olingandan so’ng, hukumat tomonidan aybini bo’yniga olishi va tirik qolish taklifi beriladi. Dastlab rozi bo’lgan keyinchalik esa bundan bosh tortgan Janna d’Ark o’limga hukm etiladi. Keyingi manba esa Amerika Qo’shma Shtatlari tarixida bo’lib, Salem jodugarlari nomi bilan bog’liq<sup>2</sup>. O’rta asrlarda ayollarga bo’lgan tazyiqlar, qiynoqlar ma’lum ma’noda o’zini himoyalashga chorlagan. Shuning uchun ayollarning ba’zilari jodugarlik bilan shug’ullana boshlagan. Vaqt o’tib qo’lga tushgan jodugarlarga o’lim jazosi tayinlanib, agar aybini bo’yniga olsa, tirik qolish taklif qilinadi. Bu orqali jodugarlarni rag’batlantirib, ko’proq jodugarlarni aniqlamoqchi bo’lishgan. Yuqorida ko’rib o’tgan tarixdagi bu institut bilan bugungi kundagi qiyofasining o’xshash va farqli jhatlari mavjud. Dastlab bu orqali qolgan jinoyatchilarga “qarmoq” tashlangan. Ayblanuvchini jazosini esa doim ham yengillatishavermagan. 1960-yillardan boshlab, bu jinoyat ishlari bo’yicha sudlarda ayblanuvchi o’z aybiga amalda iqror bo’lgan, jinoyat ishiga yordam berib, zararni bartaraf etgan taqdirda unga nisbatan tayinlanishi mumkin bo’lgan jazoni kamaytirgan holda hukm qilish joriy etila boshlandi.

2009-yil 29-iyundagi 141-FZ-sonli Federal qonuni bilan Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga kiritilgan<sup>3</sup>. 2021-yil 18-fevralda qabul qilingan O’RQ-675-son qonuni bilan jinoyat-protsessual qonunchiligimizga yangi institut – aybiga iqrorlik to’g’risida kelishuv instituti O’zbekistonda ham joriy qilindi<sup>4</sup>. Bu institut AQSh, Buyuk Britaniya (Angliya va Uels), Hindiston, Italiya, Fransiya, Estoniya, Isroil, Gruziya, Ukraina, Qozog’iston, Moldova Respublikalarida ham mavjud.

<sup>1</sup> Google-Chrome-wikipediya

<sup>2</sup> Arkanzas universiteti Little Rock Law Journal (1979) Sahifalar: 381-401

Muallif: McDonough

<sup>3</sup> Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации от 18 декабря 2001 г. N 174-ФЗ (УПК РФ) (с изменениями и дополнениями).

<sup>4</sup> Toshkent shahar, 2021-yil 18-fevral, O’RQ-675-son qonuni.

Aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuv tuzish uchun bir qator shartlar mavjud bo'lib, ular bajarilgan taqdirda kelishuv tuziladi. Bular: gumon qilinuvchi, ayblanuvchi o'z harakatlarining mohiyatini, shuningdek o'zi bergan iltimosnomaning oqibatini anglab yetgan bo'lishi lozim. Keyin gumon qilinuvchi va ayblanuvchi bergan iltimosnoma ixtiyoriy ravishda va ishda ishtirok etayotgan himoyachisi bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan keyin berilgan bo'lsa va gumon qilinuvchi, ayblanuvchi surishtiruv yoki tergov organi tomonidan qo'yilgan gumonni yoki ayblovni, ish bo'yicha mavjud bo'lgan dalillarni, shuningdek yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini inkor etmagan hamda uni bartaraf etgan holda ishni nazorat qiluvchi prokuror bilan kelishuv imzolaydi. Kelishuv imzolashning yana bir sharti bu gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi sodir etgan qilmishning ijtimoiy xavfliligi bilan bog'liq bo'lib, qilmishning ijtimoiy xavfliligi faqatgina ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan va og'ir turdagi jinoyat bo'lganida kelishuv imzolanishi mumkin. Aybga iqrорlik to'g'risida kelishuv imzolanmaydigan hollar ham mavjud bo'lib, agar ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs ekspertiza xulosasiga ko'ra belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganda va amalda bir necha qilmishlar sodir etgan bo'lib, ulardan loqal bittasi ijtimoiy xavflilik xususiyatidan kelib chiqib yuqoridagi talablarga tushmasa, kelishuv tuzilmaydi.

Bu boradagi xorij tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, Angliyada qo'lga olinayotgan vaqtida faol qarshilik ko'rsatgan shaxsning aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuv tuzish uchun bergan iltimosnomasi qanoatlantirilmaydi yoki Rossiya Federatsiyasi Jinoyat qonunchiligida ayollarga, o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalarga nisbatan qilingan jinoyatlar shuningdek, davlat manfaatlariga qarshi qilingan jinoyatlar yuzasidan kelishuv imzolanmaydi. Chernegoriya jinoyat-protsessual qonunchiligida terrorizm va uyushgan jinoyatchilik bilan bog'liq ishlar yuzasidan kelishuv imzolanmaydi.

E'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlardan biri Rossiya Federatsiyasining jinoyat qonunchiligida FAOL PUSHAYMONLIK instituti ham mavjud bo'lib, bu haqda Rossiya Jinoyat-Protsessual Kodeksining 28-moddasida keltirib o'tilgan<sup>5</sup>. Bu institutning muhim jihati shundaki, Sud, shuningdek tergovchi tergov organi rahbarining roziligi bilan yoxud tergovchi prokurorning roziligi bilan jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxsga nisbatan jinoyat ishini tugatishga haqli. Bu Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 75-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun amal qiladi. Boshqa toifadagi jinoyat ishi bo'yicha shaxs sodir etgan jinoyati uchun faol pushaymon bo'lgan taqdirda unga nisbatan jinoiy javobgarlikka

---

<sup>5</sup> Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации от 18 декабря 2001 г. N 174-ФЗ (УПК РФ) (с изменениями и дополнениями).

tortishni tugatish sud tomonidan, shuningdek tergovchining roziligi bilan amalga oshiriladi. Tergov organining rahbari yoki tergovchi tomonidan prokurorning roziligi bilan faqat Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining Maxsus qismining tegishli moddalarida maxsus nazarda tutilgan hollardagina jinoyat ishini tugatish mumkin. Jinoyat ishi tugatilgunga qadar shaxsga yuqoridagilarga muvofiq jinoyat ishini tugatish asoslari hamda jinoyat ishini tugatishga e'tiroz bildirish huquqi tushuntirilishi kerak. Agar jinoyat ishi tugatilayotgan shaxs bunga e'tiroz bildirsa, jinoyat ishini tugatishga yo'l qo'yilmaydi. Bu holatda jinoyat ishini yuritish odatdagi tartibda davom ettiriladi

Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzish uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi surishtiruv yoki dastlabki tergovning istalgan bosqichida ishda qatnashayotgan o'zining himoyachisi bilan maslahatlashgan holda iltimosnoma bilan murojaat qilishga haqli hisoblanadi. Bergan iltimosnomasida u o'ziga qo'yilgan gumonni yoki ayblovni tan olishi, dalillarni inkor etmasligi, jinoyat ishini tergov qilishga ko'maklashishi, jinoyat natijasida olingan mol-mulkni qaytarishi, keltirilgan boshqa turdagi zararlarni bartaraf etishi, ishni oydinlashtirish uchun bajarishi lozim bo'lgan harkatlarni bayon qiladi. Iltimosnomani tergovchi yoki surishtiruvchiga taqdim etadi. Tergovchi yoki surishtiruvchi iltimosnomani olgan vaqtdan e'tiboran yigirma to'rt soat ichida jinoyat ishi materiallari bilan birga ko'rib hal qilishi uchun prokurorga yuboradi. Prokuror esa jinoyat ishi materiallari bilan birga qabul qilib olgan iltimosnomani yetmish ikki soat ichida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi va uning himochisi, zarur hollarda fuqaroviy da'vogar yoki jabrlanuvchi ishtirokida ko'rib chiqadi. Prokuror iltimosnomani ko'rib chiqish jarayonida jinoyat ishi materiallarini va taqdim qilingan yoki talab qilib olingan qo'shimcha materiallarni o'rganadi, kelishuv tuzishning asoslarini tekshiradi, shuningdek gumon qilinuvchining, ayblanuvchining kelishuv predmeti bo'lgan harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini baholaydi. Undan keyin gumon qilinuvchi, ayblanuvchining aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvning barcha shartlari bilan tanishgan-tanishmaganligini, iltimosnomani ixtiyoriy ravishda va o'z xohishi bilan, shuningdek himoyachi bilan muhokama qilganidan keyin bergan-bermaganligini, unga nisbatan biron-bir tazyiq yoki majburlov o'tkazilgan-o'tkazilmaganligini, tuzilayotgan kelishuvning mohiyatini tushungan-tushunmaganligini aniqlaydi. Shundan keyin prokuror, agar kelishuvga asosan hukm chiqarilib, jazo tayinlanganidan keyin gumon qilinuvchining, ayblanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuvlar berganligi yoki tergovdan biron-bir muhim va ish uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni qasddan yashirganligi, kelishuvda nazarda tutilgan shartlar va majburiyatlarni bajarmaganligi aniqlansa, hukm qayta ko'rib chiqilishi mumkinligini aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzish haqida iltimosnoma bergan gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga tushuntiradi.

Prokuror aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani ko'rib chiqib, aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani

qanoatlantirish haqida yoki aybga iqrорlik to'g'risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani rad qilish to'g'risida qaror qabul qiladi. Prokuror tomonidan aybga iqrорlik to'g'risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomaning rad qilinishi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va uning himoyachisini ushbu masala yuzasidan takroran iltimosnoma berish huquqidan mahrum etmaydi.

Aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuvda quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

- ✓ kelishuv tuzilgan sana va joy;
- ✓ kelishuv tuzayotgan prokuror to'g'risidagi ma'lumotlar;
- ✓ kelishuv tuzayotgan gumon qilinuvchining, ayblanuvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, boshqa ma'lumotlari, himoyachi haqidagi ma'lumotlar;
- ✓ jinoyat sodir etilgan joy va vaqtning, shuningdek isbotlanishi lozim bo'lgan boshqa holatlarning tavsifi;
- ✓ Jinoyat kodeksining mazkur jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi, qismi, bandi;
- ✓ gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazoni yengillashtiruvchi holatlar, aybga iqrорlik to'g'risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo'yicha jazo tayinlash tartibi;
- ✓ sodir etilgan jinoyatni fosh etish, jinoyat ishi bo'yicha dalillarni taqdim etish, jinoiy yo'l bilan orttirilgan mol-mulknani aniqlash bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi kelishuv imzolanganidan keyin bajarishni o'z zimmasiga oladigan harakatlar;
- ✓ yetkazilgan zararning miqdori va uning o'rni qoplanishi va shundan keyin prokuror, agar kelishuvga asosan hukm chiqarilib, jazo tayinlanganidan keyin gumon qilinuvchining, ayblanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuvlar berganligi yoki tergovdan biron-bir muhim va ish uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni qasddan yashirganligi, kelishuvda nazarda tutilgan shartlar va majburiyatlarni bajarmaganligi aniqlangan holda hukm qayta ko'rib chiqilishi mumkinligi.

Agar ish bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida bir necha shaxs jalb etilgan bo'lsa, aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuv har bir gumon qilinuvchi, ayblanuvchi bilan alohida-alohida tuziladi.

Kelishuv prokuror, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi tomonidan imzolanadi. Kelishuv imzolanganiga qadar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi kelishuv tuzish masalasini va uning oqibatlarini himoyachi bilan xoli qolib va maxfiy holda muhokama qilish huquqidan foydalanishlari mumkin. Aybga iqrорlik to'g'risida kelishuv imzolanganidan keyin prokuror ish bo'yicha tergov va boshqa protsessual harakatlar o'tkazish zarurati mavjud bo'lmagan taqdirda ayblov xulosasini yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlab, ishni sudga yuboradi. Aybga iqrорlik to'g'risida kelishuv imzolanganidan keyin tergov va boshqa protsessual harakatlar o'tkazish zarurati mavjud bo'lgan taqdirda, prokuror ishni surishtiruv yoki tergov organiga yuboradi.

Surishtiruvchi, tergovchi gumon qilinuvchining, ayblanuvchining aybini tasdiqlash uchun yetarli hajmda dalillarni to'playdi. Agar ishni sudga qadar yuritish jarayonida jinoyatning aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvda nazarda tutilmagan boshqa holatlari aniqlansa, kelishuv o'z kuchini yo'qotadi va aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzishni istisno etadigan holatlar aniqlangan taqdirda, jinoyat ishi bo'yicha ish yuritish umumiy tartibda olib boriladi. Gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining aybini tasdiqlash uchun dalillar to'planganidan keyin surishtiruvchi, tergovchi ishni prokurorga taqdim etadi. Prokuror jinoyat ishi materiallarini besh sutka ichida ko'rib chiqib, ayblov xulosasini yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlab, ishni aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv bilan birga sudga yuboradi. Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo'yicha tayinlanadigan jazoning muddati va miqdori Jinoyat Kodeksining Maxsus qismining tegishli moddasida (qismida) nazarda tutilgan eng ko'p jazoning yarmidan oshmasli O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 57<sup>2</sup>-moddasida keltirib o'tilgan.

Agar ish bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida bir necha shaxs jalb qilingan bo'lsa va ularning barchasi bilan ham aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilmagan bo'lsa, o'zi bilan kelishuv tuzilmagan gumon qilinuvchilarga, ayblanuvchilarga taalluqli materiallar ajratiladi va ular bo'yicha ish yuritish umumiy qoidalarga rioya etgan holda amalga oshiriladi, bu haqda kelishuvda ko'rsatiladi.

Hindiston jinoyat qonunchiligining o'ziga xos jihatlaridan biri bu sud aybga iqror bo'lish to'g'risidagi kelishuv yuzasidan ko'rib chiqib, qonuniy qaror qabul qiladigan jinoyat ishini dastlab bir marta ko'rib chiqib, umumiy qoidalarga amal qilinganligini tekshiradi va sudlanuvchiga yetkazilgan zararni bartaraf etish, ziyonni qoplashi uchun muddat bergan holda ishni ko'rishni keyingi safarga qoldiradi. Zarar bartaraf qilingandan so'ng sudlanuvchiga yengillashtiruvchi jazo tayinlab, hukm o'qiydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishim lozimki, aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv instituti jinoyat-protsessual qonunchiligimizda yangi institut bo'lganligi sababli, unda bir qator oydinlashtirilishi lozim bo'lgan holatlar mavjud. Jumladan men quyidagilarni taklif sifatida berishim mumkin:

1) Ishga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida jalb qilingan shaxsning ilgari jinoyat sodir etgan-etmaganligini aniqlash yuzasidan hech qanday shart kiritilmagan. Shaxs ilgari o'ta og'ir jinoyat sodir etgan bo'lsachi, u bilan ham kelishuv imzolana-veradimi? Fikrimcha, O'zbekiston Respublikasi JPKsining 586<sup>1</sup>- moddasi 1-qismiga oldin jinoyat sodir etgan-etmaganligi yuzasidan ham alohida shartlar kiritilishi lozim.

2) Jinoyat ishiga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida jalb qilingan shaxs ilgari ham jinoyat sodir qilib, o'sha jinoyat ishi yuzasidan aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv imzolagan bo'lsa qanday huquqiy oqibat kelib chiqadi? Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi bu ish yuzasidan ham kelishuv imzolashi mumkinmi? Misol uchun shaxs

jinoyat sodir etib, jinoyat ishi yuzasidan kelishuv imzolagan va jazosini yengillashtirishga erishgan. Bilamizki, kelishuv imzolangan ish yuzasidan tayinlanadigan jazo chorasini moddada nazarda tutilgan jazoning yarmidan oshmasligi lozim. Bu holda shaxs qayta va qayta jinoyat sodir etishdan qaytmay qolishi mumkin. Sababi unga tayinlanadigan jazo kam. Ushbu institutni ham amnistiya akti singari inson umrida bir martagina foydalana oladigan huquq sifatida belgilash kerak. Bu haqda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-Protsessual Kodeksining 586<sup>1</sup>- moddasi 1-qismiga oldin sodir etgan jinoyati yuzasidan kelishuv imzolanganligi yoki imzolanmaganligi sharti ham kiritilishi lozim.

3) Bu institut uchun ham O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksida kelishuv tuzish uchun jinoyatlar uzil kesil moddalar ro'yxati keltirilish lozim deb hisoblayman. Shunday jinoyatlar borki, qasddan, o'z harakatlarining oqibatini anglab yetgan holda sodir etadi. Misol uchun, Jinoyat Kodeksi 104-modda 2-qism "v" bandida nazarda tutilgan (qasddan badanga o'ta shafqatsizlik bilan og'ir tan jarohati yetkazish) jinoyatni sodir qilgan. O'ylaymanki, bunday holatlar yuzasidan kelishuv imzolanmasligi kerak. Yoki shu harakatni qilishdan oldin shaxs jazo chorasini yengillashtirish imkonini borligini bilsa, jazodan qo'rqish hissi oldingidan kam bo'lishi mumkin.

Yana bir fikrim ijtimoiy xavfi kata bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir jinoyatlar yuzasidan kelishuv imzolashda, ushbu turdagi jinoyatlarning og'irlashtiruvchi holatlarni nazarda tutuvchi qismini sodir etgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi bilan kelishuv imzolanmaslik shartini kiritish kerak.

4) Aybiga iqrordlik to'g'risidagi kelishuv yuzasidan iltimosnoma bilan jinoyat ishi materiallarini prokuror ko'rib chiqib, iltimosnomani qanoatlantirish yoki qanoatlantirmaslik yuzasidan qaror chiqaradi. Prokuror ushbu qaror qabul qilish jarayonida aynan nimalarni hisobga oladi. Shu holatlar ham O'zbekiston Respublikasi JPKsida aniq belgilab qo'yilishi kerak deb hisoblayman. To'g'ri, ko'plab yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olsa bo'ladi, lekin bu bilan korrupsiyaga yo'l ochilishi ham mumkinku? Yoki asossiz rad etilish holatlari yuzaga kelishi mumkin. Prokurorga qonunlarni ijro etilishi ustidan nazorat qilish huquqi berilgan. Ammo amaliyotda bu huquqni suiste'mol qilayotgan prokurorlar ham yo'q emas.

5) Aybiga iqrordlik to'g'risida kelishuv imzolash yuzasidan iltimosnoma surishtiruv yoki dastlabki tergovning istalgan bosqichida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tomonidan berilishi mumkinligi kodeksda belgilab qo'yilgan. Bilamizki, ayblov xulosasi dastlabki tergov yakuni bo'yicha jinoyat ishi materiallari bilan ayblanuvchini tanishtirgandan so'ng tuziladi. Ushbu holatda ayblanuvchi jinoyat ishi materiallari bilan tanishib chiqib, aybi isbotlanganiga to'la amin bo'lgandan keyin aybiga iqrordlik to'g'risida kelishuv imzolash uchun iltimosnoma bilan murojaat qilishga haqli. Sababi dastlabki tergov ayblov xulosasi tuzilgandan so'ng yakunlanadi.

Jinoyat ishi ochilishiga o'zining yordamini bermagan, jinoyatini tan olmagan yoki aybi rad etib bo'lmas dalillar bilan isbotlangan ayblanuvchi kelishuv tuzish huquqidan foydalanishi protsessual jihatdan to'g'ri. Bu holatda iltimosnomani qanoatlantirish yoki qanoatlantirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish prokuror ixtiyorida qoladi. Bu esa ma'lum bir ma'noda korrupsiyaga yo'l ochishi mumkin. Buning ham alohida tartibi belgilab o'tilishi lozim deb hisoblayman.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Google-Chrome-vikipediya.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
4. Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации от 18 декабря 2001 г. N 174-ФЗ (УПК РФ) (с изменениями и дополнениями).
5. The Criminal Procedure Rules of England, 2015.
6. THE CODE OF CRIMINAL PROCEDURE of India, 1973.
7. Rebecca Hollander-Blumoff-GETTING TO "GUILTY": PLEABARGAINING AS NEGOTIATION.
8. Dylan Palmer-How Plea Bargaining Has Impacted the Criminal Justice System.
9. Arkansas universiteti Little Rock Law Journal (1979) Sahifalar: 381-401  
Muallif: McDonough.
10. lex.uz sayti.